



# **PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS INTERNATIONAL CONFERENCE**

**2025**

**IŠBN 978-955-3605-86-4**

© Sp. z o. o. "CAN", 2025

© Authors, 2025

PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS: a collection scientific works of the International scientific conference (17 June, 2025) - Copenhagen: 2025. Part 46 – **300** p.

Editorial board:

**Tone Roald**, PhD Associate Professor of Psychology University of Copenhagen

**Elin Eriksen Ødegaard**, Professor, Western Norway University of Applied Sciences

**Mariane Hedegaard**, Professor Emerita, Copenhagen University, Denmark

**Magnus Englander**, PhD Associate Professor of Psychology Malmö University, Sweden

**Paul Sullivan**, PhD University of Bradford Bradford, United Kingdom

**Mathias Traczyk Søren**, PhD

**Thiesen Amanda**, PhD

**Nybroe Røhde**, PhD

Languages of publication: dansk, English, русский, беларуская, limba română, uzbek,

The compilation consists of scientific researches of scientists, post-graduate students and students who participated International Scientific Conference "PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS". Which took place in COPENHAGEN on 17 June, 2025.

Konferencehandlinger anbefales til videnskabsmænd og lærere i højere læreanstalter. De kan bruges i uddannelse, herunder undervisning i postgraduate studier, forberedelse til opnåelse af bachelor- og kandidatgrad. Gennemgangen af alle artikler blev udført af eksperter, materialer er i henhold til forfattere copyright. Forfatterne er ansvarlige for indhold, undersøger resultater og fejl.



**Conference Alerts**  
N E T W O R K

# **PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS**

Part 46  
June 2025

Collection of Scientific Works

Copenhagen "Science Edition" 17 June 2025

|                                                                                                                                                                                           |     |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>NILUFAR JUMABOYEVA</b><br><i>THE IMPORTANCE OF PROFESSIONAL-PEDAGOGICAL<br/>TRAINING IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM OF<br/>UZBEKISTAN</i>                                              |     |
| <b>ALISHER ERGASHEVICH ERNAZAROV</b><br><b>MUXTOROVA FERUZA MAMASOLIEVNA</b><br><i>RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDA DARS KO'NIKMALARINI<br/>RIVOJLANTIRISH</i>                                    | 189 |
| <b>O. TURSUNOVA</b><br><b>R.JABBAROVA</b><br><i>SIFATLARNING O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA ISHLATISHI:<br/>UMUMIYLIKLAR VA FARQLAR</i>                                                       | 193 |
| <b>ZARIMOVA TURSINAY BERDIBAY QIZI</b><br><i>QARAQALPAQ XALQI MILLIY MUZIKASI TIYKARINDA<br/>OQIWSHILARDIŇ RUWXIY PÁZIYLETLERIN<br/>QÁLIPILESTIRIWDEGI ORNI</i>                           | 198 |
| <b>TOSHMATOV IKROM MENGALIYEVICH</b><br><i>YANGI O'ZBEKISTONDA TALIM ISLOHATLARI NATIJALAR VA<br/>ISTIQBOLLAR</i>                                                                         | 202 |
| <b>ABDULLAYEVA GULCHEHRA</b><br><b>G.E.ABDIYEVA</b><br><i>RAQSNING TA'LIM TIZIMIDAGI O'RNI VA KELAJAGI – BU<br/>HARAKAT ORQALI TARBIYA BERISHDIR</i>                                      | 205 |
| <b>РИХСИБАЕВ УЛУҒБЕК ТИМУРОВИЧ</b><br><i>СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ И МОДЕРНИЗАЦИЯ<br/>АЛГОРИТМОВ РЕШЕНИЯ МЕТРИЧЕСКИХ ЗАДАЧ В<br/>НАЧЕРТАТЕЛЬНОЙ ГЕОМЕТРИИ</i>                                     | 207 |
| <b>IBADULLAYEV BOTIR ILXAMOVICH</b><br><b>RAHMANOV GULOMJON NEMATOVICH</b><br><i>DEVELOPING YOUNG LEARNERS' SPEAKING SKILLS<br/>THROUGH VARIOUS ACTIVITIES</i>                            | 213 |
| <b>IBADULLAYEV BOTIR ILXAMOVICH</b><br><b>RAHMANOV GULOMJON NEMATOVICH</b><br><i>ENHANCING YOUNG LEARNERS' SPEAKING PROFICIENCY<br/>THROUGH ENGAGING CLASSROOM ACTIVITIES</i>             | 217 |
| <b>DJUMABAYEVA SALOMAT KAMILJANOVNA</b><br><i>XIZMAT KO'RSATISH SOHALARI GEOGRAFIYASIGA OID<br/>MASALALAR</i>                                                                             | 221 |
| <b>ABDUQODIROV DAVRON SOLIJON O'G'LI</b><br><b>MAXMUDOV MUXSINJON MANSURJON O'G'LI</b><br><i>FUTBOLCHILARNI MASHG'ULOT JARAYONIDA KUCH VA<br/>CHIDAMKORLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH</i> | 225 |
| <b>ABDUQODIROV DAVRON SOLIJON O'G'LI</b>                                                                                                                                                  | 228 |

**XIZMAT KO'RSATISH SOHALARI GEOGRAFIYASIGA OID MASALALAR***Chirchiq davlat pedagogika universiteti,**Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi**104 uy. Tel.: +99870 716-68-05**Email: S.djumabayeva@cspi.uz**Tabiiy fanlar fakulteti Geografiya kafedrası dotsent v.b.***Djumabayeva Salomat Kamiljanovna**

**Anotatsiya.** Mazkur maqolada xizmat ko'rsatish sohalarining geografik xususiyatlari, ularning aholining ehtiyojlarini qondirishdagi o'rne hamda muassasalarning joylashuvi va xizmat ko'rsatish radiusini aniqlash usullari o'rganiladi. Xizmat ko'rsatish tarmoqlari har bir hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularning samarali faoliyati uchun hududiy rejalashtirish va hisoblash metodlaridan foydalanish zarur. Maqolada xizmat ko'rsatish muassasalarining ta'sir zonaları, o'rtacha xizmat radiusi va markazgacha bo'lgan masofani aniqlovchi formulalar asosida amaliy yondashuvlar taklif etiladi. Ayniqsa, qishloq joylaridagi servis tarmoqlarining rivojlanishi bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** xizmat ko'rsatish geografiyasi, xizmat radiusi, muassasa joylashuvi, aholi ehtiyoji, servis zonasi, hududiy rejalashtirish, statistik tahlil.

Xizmat ko'rsatish sohalari aholining turli-tuman moddiy, ma'naviy ko'rinishidagi ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi sohalar va ularning muassasalarini qamrab oladi. Har bir xizmat ko'rsatish sohasi, o'z navbatida, ko'plab turlicha xususiyat va ko'rinishga ega bo'lgan xizmatlar turlaridan tashkil topgan hamda o'zining tarkibiy tuzilmasiga ega. Aholi uchun zarur bo'lgan xizmatlarni guruhlash, tasniflash, shakllanishi, hududiy tashkil etilishi, zamonaviy holati hamda kelajak rivojlanishi masalalarini tadqiq etish katta ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Keyingi o'n yillikda O'zbekistonda ham aholining turmush sharoitlarini yaxshilash, ayniqsa, mamlakat aholisining katta qismi yashaydigan qishloq joylarning ijtimoiy va iqtisodiy infrastruktura sharoitlarini yuksaltirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Xizmat ko'rsatish sohalari rivojlangan jamiyat sanoatlashgandan keyingi tipda bo'lib, nomoddiy soha tarmoqlari keng "quloq yoygan" bo'ladi. Bu soha ham o'ziga yarasha hisoblashlarni talab qiladi. Shu bois puxta, har tomonlama tahlil va ifodalarni amalga oshirish lozim. Chunki, xizmat ko'rsatish sohalari muassasalarining joylashuvi va xizmat ko'rsatish darajasini aholining joylashuvi va ehtiyojlari darajasiga mosligi orasidagi tafovutlarni aniqlashda aholiga xizmat ko'rsatish sohalari geografiyasining roli katta.

**Muassasalarning xizmat ko'rsatish radiusini aniqlash**

Ma'lumki, yirik xizmat ko'rsatish muassasalari aholi gavjum hududlarda joylashtiriladi. Mahsuloti sifatli, xizmat ko'rsatish darajasi yuqori va tartibli tarzda tizimlashtirilgan xizmat ko'rsatish muassasalardan ko'pchilik foydalanadi. Ularning ta'sir kuchi xizmat ko'rsatish radiusi orqali ifodalanadi hamda uni hisoblashda quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$R^{sr} = \frac{\sqrt{A^{sr}}}{n}$$

Bu yerda,  $R^{sr}$  - xizmat ko'rsatish radiusi;

$A^{sr}$  - ma'lum turdagi muassasalarning xizmat ko'rsatish areali (maydoni);

$n$  - ma'lum turdagi xizmat ko'rsatish muassasalari soni.

Xizmat ko'rsatish muassasalarining xizmat radiusi nisbiy hisoblanadi. Chunki, ko'p kuzatilganidek, qishloq tumanlarida istiqomat qiluvchi aholi tuman markazi va tuman hududidagi muassasalardan ko'ra, viloyat markazi yoki yaqin atrofdagi yirik shaharlardagi xizmat ko'rsatish muassasalaridan foydalanadi. Lekin, har bir narsada tartib va hisoblilik bo'lganidek, muassasalar joylashuvi va radiusi ham muhim. Bunda ma'lum hudud maydoni va muassasalar soni aniqlanadi. Shunda hudud bo'yicha har bir xizmat ko'rsatish muassasasining o'z ta'sir doirasidagi radiusi kelib chiqadi.

#### **Muassasaga ega bo'lgan aholi punktlarining o'rtacha xizmat ko'rsatish radiusini aniqlash**

Muassasaga ega bo'lgan aholi punktlarining ta'sir doirasiga bog'liq holda, xizmat ko'rsatish radiusi kelib chiqadi. O'rtacha xizmat ko'rsatish radiusi quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$R_m^{sr} = 0,56 \times \frac{\sqrt{G^{sr}}}{n}$$

Bu yerda,  $R_m^{sr}$  - o'rtacha xizmat ko'rsatish radiusi;

$G^{sr}$  - xizmat ko'rsatish hududining maydoni;

$n$  - xizmat ko'rsatish muassasalariga ega aholi punktlari soni;

0,56 - hisoblash uchun kerak bo'ladigan konstanta o'zgarmas son.

Bunda ma'lum hudud bo'yicha umumiy xizmat ko'rsatish muassasasiga ega bo'lgan aholi punktlarining soni va hudud maydoni aniqlanadi. Ular o'zaro nisbatlangach, chiqqan natijani o'rtacha xizmat radiusi – 0,56 bilan monand holda, shakllantiriladi. Natijada, ma'lum areal bo'yicha punktlarning servis radiusi kelib chiqadi.

#### **Muassasaga ega bo'lmagan aholi punktidan xizmat ko'rsatish markazigacha bo'lgan o'rtacha masofani aniqlash**

$$e = 0,28 \times \frac{\sqrt{G^{sr}}}{n} \text{ (km)}$$

bu yerda,  $e$  = xizmat ko'rsatish markazigacha bo'lgan o'rtacha masofa;

$G^{sr}$  - xizmat ko'rsatish hududining maydoni;

$n$  - xizmat ko'rsatish muassasalariga ega bo'lmagan aholi punktlari.

0,28 - hisoblash uchun kerak bo'ladigan konstanta – o'zgarmas son.

### **Xizmat ko'rsatish sohalari geografiyasiga oid masalalar ishlaymiz.**

Xizmat ko'rsatish sohalari aholining turli-tuman moddiy, ma'naviy ko'rinishidagi ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi sohalar va ularning muassasalarini qamrab oladi. Har bir xizmat ko'rsatish sohasi, o'z navbatida, ko'plab turlicha xususiyat va ko'rinishga ega bo'lgan xizmatlar turlaridan tashkil topgan hamda o'zining tarkibiy tuzilmasiga ega. Aholi uchun zarur bo'lgan xizmatlarni guruhlash, tasniflash, shakllanishi, hududiy tashkil etilishi, zamonaviy holati hamda kelajak rivojlanishi masalalarini tadqiq etish katta ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Keyingi o'n yillikda O'zbekistonda ham aholining turmush sharoitlarini yaxshilash, ayniqsa, mamlakat aholisining katta qismi yashaydigan qishloq joylarning ijtimoiy va iqtisodiy intrastruktura sharoitlarini yuksaltirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Xizmat ko'rsatish sohalari rivojlangan jamiyat sanoatlashgandan keyingi tipda bo'lib, nomoddiy soha tarmoqlari keng "quloqch yoygan" bo'ladi. Bu soha ham o'ziga yarasha hisoblashlarni talab qiladi. Shu bois puxta, har tomonlama tahlil va ifodalarni amalga oshirish lozim. Chunki, xizmat ko'rsatish sohalari muassasalarining joylashuvi va xizmat ko'rsatish darajasini aholining joylashuvi va ehtiyojlari darajasiga mosligi orasidagi tafovutlarni aniqlashda aholiga xizmat ko'rsatish sohalari geografiyasining roli katta.

### **Muassasalarning xizmat ko'rsatish radiusini aniqlash**

Ma'lumki, yirik xizmat ko'rsatish muassasalari aholi gavjum hududlarda joylashtiriladi. Mahsuloti sifatli, xizmat ko'rsatish darajasi yuqori va tartibli tarzda tizimlashtirilgan xizmat ko'rsatish muassasalardan ko'pchilik foydalanadi. Ularning ta'sir kuchi xizmat ko'rsatish radiusi orqali ifodalanadi hamda uni hisoblashda quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$R^{Sr} = \frac{\sqrt{A^{Sr}}}{n}$$

Bu yerda,  $R^{Sr}$ - xizmat ko'rsatish radiusi;

$A^{Sr}$  - ma'lum turdagi muassasalarning xizmat ko'rsatish areali (maydoni);

$n$  - ma'lum turdagi xizmat ko'rsatish muassasalari soni.

Xizmat ko'rsatish muassasalarining xizmat radiusi nisbiy hisoblanadi. Chunki, ko'p kuzatilganidek, qishloq tumanlarida istiqomat qiluvchi aholi tuman markazi va tuman hududidagi muassasalardan ko'ra, viloyat markazi yoki yaqin atrofdagi yirik shaharlardagi xizmat ko'rsatish muassasalaridan foydalanadi. Lekin, har bir narsada tartib va hisoblilik bo'lganidek, muassasalar joylashuvi va radiusi ham muhim. Bunda ma'lum hudud maydoni va muassasalar soni aniqlanadi. Shunda hudud bo'yicha har bir xizmat ko'rsatish muassasasining o'z ta'sir doirasidagi radiusi kelib chiqadi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Jo'raev A. "Iqtisodiy geografiya asoslari." – Toshkent: O'qituvchi, 2020.
2. Usmonov M. "Hududiy rejalashtirish va xizmat ko'rsatish tizimi." – Toshkent: Fan, 2018.
3. Egamberdiyeva D. "Aholiga xizmat ko'rsatish geografiyasi." – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021.
4. Karimov I. "O'zbekistonning urbanizatsiya jarayonlari." – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019.
5. Statistical Committee of Uzbekistan. "O'zbekiston hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari." – Toshkent: Davlat statistika qo'mitasi nashri, 2023.
6. Komiljonovna, D. S. (2022). Methods Of Using Statistical Data In The Lessons Of Economic And Social Geography. Eurasian Research Bulletin, 4, 60-62
7. Djumabaeva Salomat Komiljonovna . (2022).International Canference on Modern Science and Scientific Studies Vol 1, Issue 2, November 19th 2022/ 83-90
8. Djumabaeva S.K. Муғаллим ҳәм узликсиз билимлендири №2 2012 жыл № 3/1 - 2022 жыл ISSN 2181-7138 Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya darslaridastatistik ma'lumotlardan foydalanish metodologiyasi 102-105 b.
9. Джумабаева С.К. Иқтисодий ва ижтимоий географиянинг назарий жиҳатлари ва тарихи./ Zamonaviy fan va ta'lim-tarbiya: muammo va yechimlar.474-476 бет. 5. Abdimurotov O.U. Geografiyadan masala va mashqlar. O'quv qo'llanma. – Toshkent, ZEBO PRINT, 2022. – 218 b.
10. Abdimurotov O.U. Umumta'lim maktablari o'quv atlaslari mazmunini takomillashtirish (5, 6 va 7-sinf atlaslari misolida) // O'zbekiston Geografiya jamiyati axboroti, 56-jild. – Toshkent, 2019. – B. 158-161.
11. Djumabayeva S.K. The role and importance of Statistics in teaching Economic and Social Geography.// Electronic journal of actual problems of Modern / science, Education and training. December, 2021-12/2. pp. 94-97.
12. Djumabayeva S.K. The role and importance of Statistics in teaching Economic and Social Geography.// Electronic journal of actual problems of Modern / science, Education and training. December, 2021-12/2. pp. 94-97